

UDK: 632.78; 632.93

G'O'ZADAGI ILDIZ TUNLAMIGA QARSHI «SIGMA ITALY» FEROMON TUTQICHINI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

A.S.Shodmonov, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon mintaqaviy filiali

Abstract: *This article provides information on the number of generations and the damage caused by the development of the beetle, which is one of the main pests of cotton. In order to determine the flight duration of adult breeds, an analysis of experiments conducted to study the effectiveness of pheromone traps produced by the Italian Republic (Sigma company) is presented.*

Key words: *Cotton, rootworm, pest, pheromone trap.*

Kirish. Hozirgi kunda g'o'za o'simligi jahonda to'qimachilik sohasida yetakchi o'rinda turadi. Keyingi o'rinlarni esa ipak va jun mahsulotlari egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki istemolchilarni asosiy talabi paxta tolasiga ekanini bilishimiz mumkin. Har yili dunyo bo'ylab 86 ta davlatda 20-22 mln tonna paxta tolasini yetishtiriladi va eksport qilinadi. Yer yuzida aholi sonini ortishi o'z navbatida qishloq xo'jalik mahsulotlariga va paxta tolasiga talabni kuchaytiradi. Lekin aholi sonini ortishi bilan yerlar ham qisqarib bormoqda. Shuning uchun seleksionerlarimiz yangi ertapishar serhosil va chidamli navlarni yaratishmoqda. Bunday navlar yangi o'zlashtirilayotgan yerlarda o'zining chidamliligi bilan yuqori hosil berib kelmoqda. Lekin kasallik, zararkunanda hasharotlar hosildorlikka jiddiy zarar keltirmoqda. Shuning uchun hosilni saqlab qolish maqsadida tabiiy entomofaglar, biologik va kimyoviy preparatlardan foydalanib o'simlikni himoya qilish dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda [4,5].

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Schiff.), ko'k qurt tunlami tunlamlar turkumiga mansub zararkunanda kapalakdir. Kuzgi tunlam 150 turdagi o'simliklar maysalarini zararlaydigan xavfli zararkunanda hisoblanadi. G'o'zadagi kuzgi tunlam bioekologiyasini o'rganib tahlil qilish natijasida, uning ko'payish muddatlari va zararini aniqlash uchun feromon tutqichlarni go'za maydonlariga to'g'ri joylashtirish muhim hisoblanadi. Kuzgi tunlam Afrika, Yevrosiyo, shu jumladan, O'rta Osiyoda zararkunanda hasharot hisoblanib qishloq xo'jaligi

ekinlaridan g'oz (35% gacha), makkajo'xori maysalariga (12 -18%), beda, kungaboqarga, begona o'tlardan sho'ra, pechako't va boshqalarga katta zarar yetkazadi. Qanotlari yoyilganda 34-45 mm. Oldingi qanotlari och-qo'ng'irdan qoramtir tusgacha. Tuxumi sutsimon oq; 2-3 kun o'tgach, ularda qizg'ish dog'chalar paydo bo'ladi, qurtlari chiqishidan oldin esa tuxumi qorayadi. Qurtlari tuproqning 10-25 sm chuqurligida qishlaydi.

Yiliga

ob-havo sharoitiga qarab 3-4 avlod berab rivojlanadi. Kapalaklarning eng ko'p uchib chiqishi va juda ko'p miqdorda tuxum qo'yishi havo harorati 12-20 C bo'lganida kuzatiladi. Tuxumlarini tarqoq holda o'simlik bargining orqasiga qo'yadi. 4-15 kundan keyin tuxumdan chiqadi, ular kunduzi tuproqda yashirinib yotadi, tunda yuzaga chiqib, maysa va yosh niholdar tanasi, kurtagi, nishini kemiradi, barglarini teshib tashlaydi. Qurtlik bosqichlari 350 C dan kam harorat to'plaganda kelgusi yilga qishlab chiqa olmaydi. Qishlab qolgan avlod kapalalari samarali harorat yig'indisi 550 C bo'lganda (g'umbagining rivojlanishi uchun harorat 10 C dan kam bo'lmasligi kerak) uchib chiqadi. Kuzgi tunlamning yetuk zotlarini uchib tarqalishini hisobga olish uchun (Ideal agro va Sigma italy) feromon tutqichlarida olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan [3-5].

№	Ekin turi	Feromonlar	Feromon tutqich o'rnatilgandan keyingi, kuzatuv kunlari, 1.V.-13. V. 2024 yil						Jami, dona hisobida
			3	5	7	9	11	13	
1	G'oz	Sigma Italy	2	3	3	4	2	1	15
		Ideal agro	2	2	4	2	1	1	12

Ushbu jadvalda g'ozaning Andijon 36 -navidagi ildiz qurtining yetuk zotini aniqlash uchun sinovdan o'tkazilayotgan feromon tutqichlar birinchi maydan o'n beshinchi maygacha bo'lgan kunlar oralig'ida kuzatildi. Natijada Sigma Italy feromon tutqichiga jami 15-dona Ideal agro feromon tutqichiga esa 12- dona yetuk zot kapalaklari tushganligi aniqlandi. Tajribalarni olib borish va natijalarini dispersion tahlil qilishdagi matematik statistic ishlov berish B.A.Dospexov uslubi asosida olib borildi[1-2].

Xulosa. Kuzatuv natijalariga ko'ra feromon tutqichlarni zararkunandalarga o'z vaqtida to'g'ri qo'yish, zararkunandalarni keng tarqalishi va o'simliklarga jiddiy zarar yetkazishidan oldin ularga qarshi kurash tadbirlarini o'z vaqtida olib borishni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - Москва: Агропромиздат, - 1985. - 420 с.
2. Методика полевых и вегетационных опытов с хлопчаником (изд. 4-е, дополнительное). – Ташкент, Союз НИХИ, 1973. 19 с.
3. Нурматов Ш.Н., Мирзажонов Қ., Авлиёқулов А. ва б. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. – Тошкент, 2007. – Б. 147.
4. Abdullayeva X.Z., Yaxyayev X.Q., Aminova D.X. Feromon tutqich ma'lumotlari asosida ko'sak qurti sonini aniqlash usuli// O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasining ma'ruzalari №3. 2016. - B. 85-88.
5. Xo'jayev Sh.T. "O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, hamda agrotoksikologiya asoslari". – Toshkent, 2014. - B. 540.